

MEHMONXONALARNI DAVLAT TOMONIDAN TASNIFLASH VA YULDUZLILIK STANDARTI: O'Z DST 3296:2023

Masharipov O'rolbek Ozod o'g'li

Tashkent State Transport University

First-Year Undergraduate Student

Email: urolbekmasharipov@gmail.com

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0005-3918-2969>

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada mehmonxonalarni davlat tomonidan tasniflash va yulduzlik standartining asosiy jihatlari, xususan O'zbekistonning O'z DSt 3296:2023 "Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Balli tasniflash tizimi" milliy standarti tahlil qilinadi. Mehmonxona xizmatlari sifatini baholash va ularni yulduz toifalariga ajratish xalqaro turizm amaliyotida mijozlar uchun yo'naltiruvchi va sifat kafolati vazifasini bajaradi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va hujjatlarni o'rganish usullari qo'llanilgan. O'z DSt 3296:2023 standartining asosiy qoidalari, balli tasniflash tizimining mexanizmi, majburiy va ixtiyoriy talablarning o'zaro nisbati, shuningdek xalqaro tajriba (UNWTO, Hotels Criteria) bilan uyg'unligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida ushbu standartning joriy etilishi O'zbekistonda mehmonxona xizmatlari sifatini oshirish, xalqaro talablarga moslashtirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishdagi roli ochib berilgan. Maqolada standartni takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mehmonxona tasnifi, yulduzlik standarti, O'z DSt 3296:2023, balli tasniflash tizimi, sertifikatlashtirish, mehmonxona xizmatlari sifati, UNWTO.

ABSTRACT

This scientific article analyzes the key aspects of state hotel classification and the star rating system, specifically the national standard of Uzbekistan O'z DSt 3296:2023 "Tourism services. Accommodation facilities. Point classification system". Assessing the quality of hotel services and assigning star categories serves as a guideline and quality

guarantee for customers in international tourism practice. The study uses comparative analysis, systematic approach, and document analysis methods. The main provisions of the O‘z DSt 3296:2023 standard, the mechanism of the point classification system, the relationship between mandatory and optional requirements, as well as its alignment with international experience (UNWTO, Hotels Criteria) are analyzed. The research results reveal the role of this standard in improving the quality of hotel services in Uzbekistan, adapting them to international requirements, and enhancing competitiveness. Practical recommendations for promising areas of standard improvement are developed in the article.

Keywords: hotel classification, star rating standard, O‘z DSt 3296:2023, point classification system, certification, hotel service quality, UNWTO.

АННОТАЦИЯ (на русском языке)

В данной научной статье анализируются основные аспекты государственной классификации гостиниц и системы звездности, в частности национальный стандарт Узбекистана O‘z DSt 3296:2023 «Туристические услуги. Средства размещения. Балльная система классификации». Оценка качества гостиничных услуг и присвоение звездных категорий служит ориентиром и гарантией качества для клиентов в международной туристической практике. В исследовании использованы методы сравнительного анализа, системного подхода и изучения документов. Проанализированы основные положения стандарта O‘z DSt 3296:2023, механизм балльной системы классификации, соотношение обязательных и добровольных требований, а также его соответствие международному опыту (UNWTO, Hotels Criteria). В результате исследования раскрыта роль данного стандарта в повышении качества гостиничных услуг в Узбекистане, их адаптации к международным требованиям и повышении конкурентоспособности. В статье разработаны практические рекомендации по перспективным направлениям совершенствования стандарта.

Ключевые слова: классификация гостиниц, стандарт звездности, O‘z DSt 3296:2023, балльная система классификации, сертификация, качество гостиничных услуг, UNWTO.

KIRISH

Mehmonxona xizmatlari sifatini baholash va ularni yulduz toifalariga ajratish butun dunyoda mijozlar uchun yo‘naltiruvchi va sifat kafolati vazifasini bajaradi. Turistlar mehmonxona tanlashda ko‘pincha uning yulduz toifasiga e‘tibor qaratadi, chunki bu xizmat darajasi va qulayliklar haqida umumiy tasavvur beradi. Biroq, turli mamlakatlarda yulduzlik standartlari bir-biridan farq qilishi muhim muammo bo‘lib qolmoqda. Xalqaro miqyosda yagona standartning yo‘qligi sayyohlar uchun qiyinchiliklar tug‘diradi va mehmonxonalarni taqqoslashni murakkablashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda turizm sohasini rivojlantirish va mehmonxona xizmatlari sifatini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida turizm xizmatlari eksportini 6 milliard dollardan oshirish va sohada 1 million yangi ish o‘rni yaratish vazifalari belgilangan. Ushbu strategik maqsadlarni amalga oshirishda mehmonxonalarni xalqaro standartlar asosida tasniflash va ularga yulduz toifalarini berish tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.¹

O‘zbekiston Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son qarorida mamlakatdagi mehmonxonalarda sharoitlarni xatlovdan o‘tkazib, 2023-yil 1-oktabrga qadar xorijiy konsalting kompaniyalarini jalb qilgan holda kamida 50 ta mehmonxonaga “to‘rt yulduz” va 200 tasiga “uch yulduz” toifasini berish choralarini ko‘rish vazifasi belgilangan edi. Shu bois Turizm qo‘mitasi tomonidan turizm sohasi ilg‘or rivojlangan davlatlarning mehmonxonalarga yulduz toifasini belgilovchi hujjatlari talablari o‘rganildi va natijada balli tasniflash orqali yulduz toifasini beruvchi yangi standart loyihasi ishlab chiqildi.²

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 2023-yil 11-sentabr.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Turizm sohasida sertifikatlashtirish va litsenziyalash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-135-son Qarori.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – O‘z DSt 3296:2023 “Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Balli tasniflash tizimi” milliy standartining asosiy qoidalari, talablari va amaliy ahamiyatini tahlil qilish, shuningdek xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil asosida standartni takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mehmonxonalarni tasniflash va yulduzlik standartlari masalalari xalqaro adabiyotlarda keng yoritilgan. Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) tomonidan 2015 yilda e‘lon qilingan “Hotel Classification Systems: Recurrence of Criteria in 4 and 5 Star Hotels” nomli hisobotida 30 ta Yevropa davlati va boshqa mintaqalardagi 6 ta davlatning yulduzlik tizimlari tahlil qilingan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, turli geografik guruhlar va yulduz toifalari o‘rtasida farqlardan ko‘ra ko‘proq o‘xshashliklar mavjud. Hisobotda mehmonxona tasnifining asosiy to‘rt toifasi – xona, hammom, oziq-ovqat va ichimliklar va xizmatlar – eng ko‘p takrorlanadigan mezonlar ekanligi aniqlangan. UNWTO ekspertlarining ta‘kidlashicha, dunyoda eng ko‘p qo‘llaniladigan tasnif belgisi yulduz tizimi bo‘lib, undan keyin olmos va boshqa belgilar qo‘llaniladi. Eng yuqori rasmiy toifa odatda “5 yulduz lyuks” deb belgilanadi, bu juda yuqori sifatli xizmatlarga ega mehmonxonalarga beriladi.³

Xalqaro tajribada mehmonxonalarni tasniflash tizimlari ikki asosiy turga bo‘linadi: davlat tomonidan boshqariladigan majburiy tizimlar va xususiy tashkilotlar tomonidan boshqariladigan ixtiyoriy tizimlar. UNWTO hisobotida model tasniflash tizimi quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerakligi ta‘kidlangan: sanoat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan, iste‘molchi ehtiyojlariga asoslangan, osongina foydalanish mumkin bo‘lgan va internetga moslashtirilgan, tegishli ekspertlar tomonidan nazorat qilinadigan, barqarorlik va qulaylik masalalariga e‘tibor qaratadigan, shuningdek qayta ko‘rib chiqish va yangilash uchun yetarlicha moslashuvchan bo‘lishi lozim.

³ UNWTO. (2015). Hotel Classification Systems: Recurrence of Criteria in 4 and 5 Star Hotels. Madrid: World Tourism Organization. [Online] Mavjud: <https://www.e-unwto.org/doi/abs/10.18111/9789284416646>

O‘zbekistonda mehmonxonalarni tasniflash tizimi “Turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi” DUK tomonidan amalga oshiriladi. 2022 yilga qadar mehmonxonalar “yulduz” olish uchun 138 ta talabga javob berishi kerak edi va agar talablardan biri bajarilmasa, tegishli yulduz toifasini berish rad etilardi. Yangi standartni ishlab chiqishda avvalgi tajriba va xorijiy ilg‘or yondashuvlar hisobga olingan.⁴

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va hujjatlarni o‘rganish usullaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil usuli orqali O‘z DSt 3296:2023 standartining talablari va UNWTO tomonidan tavsiya etilgan xalqaro standartlar, shuningdek Turkiya, Yevropa Ittifoqi davlatlari va boshqa rivojlangan mamlakatlarning mehmonxona tasniflash tizimlari bilan taqqoslandi. Tizimli yondashuv usuli mehmonxona tasniflash tizimini institutsional, me‘yoriy va amaliy jihatlarining o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida tahlil qilish imkonini berdi. Hujjatlarni o‘rganish usuli bilan O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining normativ-huquqiy hujjatlari, “Turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi” DUK faoliyatiga oid hisobotlar, shuningdek UNWTO va boshqa xalqaro tashkilotlarning hisobotlari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Standartning asosiy qoidalari va talablari: O‘z DSt 3296:2023 “Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Balli tasniflash tizimi” davlat standarti 2023-yil 7-iyulda O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 05-1560-son buyrug‘i bilan qabul qilinib, 2023-yil 7-avgustda Adliya vazirligi tomonidan 194-son bilan hisobga olingan va 2023-yil 7-noyabrdan amalga joriy etilgan. Mazkur standart O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, mehmonxonalar va o‘xshash joylashtirish vositalarini balli asosda tasniflash tizimini belgilaydi.⁵

⁴ “Turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi” DUK. (2023). Yulduz toifasiga ega mehmonxonalariga doir talablarni belgilaydigan davlat standarti qabul qilindi. [Online] Mavjud: <https://tourquality.uz/uz/press-center/news/prinyat-gosudarstvennyy-standart-ustanavlivayushchiy-trebovaniya-k-gostinitsam-s-zvyezdnoy-kategorije/>

⁵ O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2023-yil 7-iyuldagi 05-1560-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘z DSt 3296:2023 “Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Balli tasniflash tizimi” davlat standarti.

Yangi standart mehmonxonalarni balli asosda tasniflash tizimini belgilaydi. Toifalar “” (yulduz) belgisi bilan belgilanadi va beshta toifa bo‘yicha tasniflanadi. Joylashtirish vositalari uchun eng yuqori toifa “*****” (besh yulduz) va eng past “” (bitta yulduz) hisoblanadi. Bu tizim mehmonxonalarni ularning qulayliklari va xizmat ko‘rsatish darajasiga qarab farqlash imkonini beradi.

Standartning asosiy tamoyillaridan biri shundaki, talablar “majburiy” va “ixtiyoriy” ga bo‘linadi. Xizmat ko‘rsatish sifati va qulayligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan umum e’tirof etilgan xalqaro mezonlardan kelib chiqadigan talablar mehmonxonalar uchun “majburiy” hisoblanadi. Tegishli yulduz toifasini olish uchun zarur bo‘lgan ballarni to‘plash uchun esa “qo‘shimcha” talablar bajariladi. Bunda “m” harfi bajarilishi majburiy bo‘lgan talablarni belgilaydi, majburiy bo‘lmagan talablar bajarilganda esa qo‘shimcha ball beriladi.

To‘plangan ballar yig‘indisiga ko‘ra mehmonxonaga tegishli “yulduz” toifasini olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Avvalgi tizimda (O‘z DSt 3296:2018) mehmonxonalar yulduz olish uchun 138 ta talabning barchasiga javob berishi kerak edi. Yangi tizim esa balli yondashuv asosida ishlaydi, bu mehmonxonalarga yanada moslashuvchan yondashish imkonini beradi va ularni barcha talablarga bir vaqtning o‘zida javob berish majburiyatidan ozod qiladi.

Yangi standart bir qator muhim o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi: avval mehmonxonalar uchun majburiy bo‘lgan 97 ta talab 85 taga qisqartirildi. Standart nafaqat mehmonxonalar va motellar, balki apartotel, apartamentlar (rezidensiya) kompleksi, lyuks xonali mehmonxonalar, spa-mehmonxonalar, butik-otellar va boshqa shunga o‘xshash joylashtirish vositalarini ham tasniflashni hisobga oladi. Standart Hotels Criteria kompaniyasining 2020–2025 xalqaro Criteria standarti mezonlari asosida ishlab chiqilgan.⁶

Xalqaro tajriba bilan uyg‘unligi

⁶ Kun.uz. (2023). Mehmonxonalarga yulduz toifasini berish bo‘yicha yangi davlat standarti qabul qilindi. [Online] Mavjud: <https://kun.uz/news/2023/09/04/mehmonxonalarga-yulduz-toifasini-berish-boyicha-yangi-davlat-standarti-qabul-qilindi>

O‘z DSt 3296:2023 standartini ishlab chiqishda ilg‘or xorijiy tajriba, xususan Yevropa va boshqa rivojlangan davlatlarning mehmonxona tasniflash tizimlari chuqur o‘rganildi. Yangi davlat standartiga kiritilgan talablar Hilton, Hampton by Hilton, Hyatt Regency Tashkent, Wyndham Hotels & Resorts kabi yirik xalqaro mehmonxona brendlari biznes vakillari bilan kelishildi. Bu esa standartning xalqaro talablarga muvofiqligini ta‘minlashga qaratilgan muhim qadamdir.

UNWTO hisobotlariga ko‘ra, xalqaro amaliyotda xona, hammom, oziq-ovqat va ichimliklar hamda xizmatlar – bu to‘rt toifa dunyoning aksariyat mehmonxona tasniflash tizimlarida mavjud. O‘z DSt 3296:2023 standarti ham xuddi shu tamoyillarga asoslangan bo‘lib, mehmonxonalarini tasniflashda ushbu asosiy toifalarni hisobga oladi. UNWTO tomonidan tavsiya etilgan model tasniflash tizimi xususiyatlari – sanoat tomonidan qo‘llab-quvvatlanganlik, iste‘molchi ehtiyojlariga asoslanganlik, osongina foydalanish mumkinlik, barqarorlik va qulaylik masalalariga e‘tibor qaratish, moslashuvchanlik va muntazam yangilanish imkoniyati – O‘zbekiston standartida ham o‘z aksini topgan.⁷

Standartni joriy etishning ahamiyati va natijalari

O‘z DSt 3296:2023 standartining joriy etilishi O‘zbekiston mehmonxona xo‘jaligida bir qator muhim o‘zgarishlarga olib keldi. Birinchidan, balli tasniflash tizimiga o‘tish mehmonxonalarga yanada moslashuvchan yondashish imkonini berdi va ularni barcha talablarga bir vaqtning o‘zida javob berish majburiyatidan ozod qildi. Ikkinchidan, standartning xalqaro talablarga muvofiqligi O‘zbekiston mehmonxonalarining xalqaro sayyohlar uchun jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, standartda “yashil” sertifikatlar va barqaror turizm talablarining hisobga olinishi sohaning zamonaviy tendensiyalarga moslashishini ta‘minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘z DSt 3296:2023 “Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Balli tasniflash tizimi” milliy standartining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu standart O‘zbekistonda

⁷ TravelPulse. (2015). UNWTO Reveals Common Criteria of Hotel Rating Systems Worldwide. [Online] Mavjud: <https://www.travelpulse.com/news/hotels-and-resorts/unwto-reveals-common-criteria-of-hotel-rating-systems-worldwide>

mehmonxona xizmatlari sifatini oshirish va ularni xalqaro talablarga moslashtirish borasida muhim qadamdir. Standartning asosiy tamoyillari – balli tasniflash tizimi, majburiy va ixtiyoriy talablarning o‘zaro nisbati, keng qamrovli joylashtirish vositalari turlarini qamrab olish – xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan va sohada tizimli yondashuvni ta’minlaydi.⁸

Biroq, mavjud tizimda hal etilishi kerak bo‘lgan bir qator muammolar ham mavjud. Xususan, standartning qo‘llanilishi hali to‘liq ishga tushmaganligi, ba’zi mehmonxonalarning yangi talablarga moslashish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelayotganligi, shuningdek standartni muntazam yangilab borish mexanizmining yetarli darajada rivojlanmaganligi kabi masalalar mavjud. Shuningdek, UNWTO ekspertlarining ta’kidlashicha, tez o‘zgaruvchan iste’molchi ehtiyojlari, xususan texnologiya va qulaylik masalalariga moslashish uchun mehmonxona tasniflash tizimlarini muntazam qayta ko‘rib chiqish foydali hisoblanadi.⁹ Yuqoridagi xulosalar va mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqilgan:

1. Standartni muntazam yangilab borish mexanizmini ishlab chiqish. Iste’molchi ehtiyojlari va texnologiyalar tez o‘zgarib borayotganligi sababli, mehmonxona tasniflash standartlarini har 3-5 yilda qayta ko‘rib chiqish va yangilash tartibini joriy etish maqsadga muvofiq.

2. Barqarorlik va “yashil” sertifikatlashtirish talablarini kengaytirish. Standartda barqaror turizm va ekologik talablar bo‘yicha mezonlarni kengaytirish, energiya samaradorligi va chiqindilarni boshqarish bo‘yicha qo‘shimcha ball tizimini joriy etish zarur.

3. Raqamlashtirish va texnologik talablarni kuchaytirish. Mehmonxonalarning raqamli transformatsiyasini rag‘batlantirish maqsadida standartda internet tezligi, onlayn bron qilish tizimlari bilan integratsiya, mobil ilovalar va sun’iy intellekt asosidagi xizmatlar bo‘yicha talablarni joriy etish lozim.

⁸ Hotels Criteria. (2020). Criteria 2020–2025 International Hotel Classification Standards.

⁹ “Turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi” DUK. (2024). 2023 yil faoliyati sarhisobi. Toshkent.

4. Xalqaro standartlar bilan uygʻunlikni kuchaytirish. Hotels Criteria xalqaro standartining yangi versiyalari bilan muntazam solishtirib borish va standartni ularga moslashtirish boʻyicha ishlarni davom ettirish, shuningdek UNWTO tomonidan tavsiya etilgan model tizim xususiyatlarini (sanoat tomonidan qoʻllab-quvvatlanganlik, isteʼmolchi ehtiyojlariga asoslanganlik, osongina foydalanish mumkinlik va boshqalar) toʻliq joriy etish.

5. Aholi va sanoat vakillarining xabardorligini oshirish. Standartning mazmuni va afzalliklari haqida mehmonxona egalari va mutaxassislari, shuningdek turistlar oʻrtasida tushuntirish ishlarini olib borish, “yulduz” toifalarining maʼnosi va ularga qoʻyiladigan talablar haqida axborot manbalarini yaratish.

Umuman olganda, Oʻz DSt 3296:2023 standarti Oʻzbekiston mehmonxona xoʻjaligini rivojlantirish va uning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda muhim vositadir. Standartni muntazam yangilab borish, xalqaro talablar bilan uygʻunlikni kuchaytirish va barqarorlik hamda raqamlashtirish masalalariga eʼtibor qaratish orqali ushbu vositaning samaradorligini yanada oshirish mumkin.¹⁰

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasining “Turizm toʻgʻrisida”gi Qonuni. 2019-yil 18-iyul, OʻRQ-549-son.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Farmoni. 2023-yil 11-sentabr.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Turizm sohasida sertifikatlashtirish va litsenziyalash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-135-son Qarori.
4. Oʻzbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2023-yil 7-iyuldagi 05-1560-son buyrugʻi bilan tasdiqlangan Oʻz DSt 3296:2023 “Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Balli tasniflash tizimi” davlat standarti.

¹⁰ Tourism Committee of the Republic of Uzbekistan. (2023). STQ 4 “Turizm va madaniy meros” standartlashtirish boʻyicha texnik qoʻmita faoliyati toʻgʻrisida hisobot. Toshkent.

5. “Turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi” DUK. (2023). Yulduz toifasiga ega mehmonxonalarga doir talablarni belgilaydigan davlat standarti qabul qilindi. [Online] Mavjud: <https://tourquality.uz/uz/press-center/news/prinyat-gosudarstvennyy-standart-ustanavlivayushchiy-trebovaniya-k-gostinitsam-s-zvyezdnoy-kategoriy/>
6. Gazeta.uz. (2022). Mehmonxonalarga «yulduzlar» yangi standart asosida beriladi. [Online] Mavjud: <https://www.gazeta.uz/oz/2022/11/15/hotel-standart/>
7. Kun.uz. (2023). Mehmonxonalarga yulduz toifasini berish bo‘yicha yangi davlat standarti qabul qilindi. [Online] Mavjud: <https://kun.uz/news/2023/09/04/mehmonxonalarga-yulduz-toifasini-berish-boyicha-yangi-davlat-standarti-qabul-qilindi>
8. Xabar.uz. (2023). Mehmonxonalarga yulduz toifasini berish bo‘yicha yangi davlat standarti qabul qilindi. [Online] Mavjud: <http://www.xabar.uz/uz/post/mehmonxonalarga-yulduz-toifasini-ber?category=mahalliy>
9. Sputnik O‘zbekiston. (2023). Mehmonxonalar “yulduz” olishi bo‘yicha davlat standarti qabul qilindi. [Online] Mavjud: <https://oz.sputniknews.uz/20230831/mehmonxonayulduz-olish-yangi-davlat-standarti-38448931.html>
10. UNWTO. (2015). Hotel Classification Systems: Recurrence of Criteria in 4 and 5 Star Hotels. Madrid: World Tourism Organization. [Online] Mavjud: <https://www.e-unwto.org/doi/abs/10.18111/9789284416646>